

## O'ZBEK ROMANLARIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMALAR

To'rayeva Iroda Sheramatovna

Qarshi davlat universiteti akademik litsey o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek romanlarida, shuningdek xalq og'zaki ijodida etnografik folklorizmlarning qo'llanilish tarixi, o'ziga xos jihatlari, yurtimiz folklorizmi haqida bildirilgan fikrlar hamda asarlardan namunalarni muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** folklorizm, etnografiya, roman, xalq og'zaki ijodi, estetika, adabiyot.

**KIRISH:** Dunyo xalqlari adabiyotshunosligida folklorizmlarning badiiy asar xalqchilligini va milliyligini oshirishdagi o'rni, roli, shakllanish asoslari, ijtimoiy-ruhiy, badiiy-estetik omillari, ichki tiplari tasnifi, tadrijiy takomil xususiyatlari, ijodkor mahoratini belgilashdagi ahamiyatiga qiziqish hamisha ustuvor bo'lgan. Keyingi paytlarda har bir xalq adabiyotida muayyan ijodkor folklorizmini tarixiy-qiyosiy, tarixiy-madaniy, qiyosiy-tipologik va biografik aspektda yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar salmog'ining yildan-yilga oshib borayotgani ham shu ulkan qiziqishning samarasidir.

**ADABIYOTLAR SHARHI:** Folklorizmlar orasida to'y, aza, ibodat, biror kasallikni davolash, mushkulotga yechim izlash maqsadida tashkil qilinadigan xalq tadbirlari asosida shakllantirilgan etnografik folklorizmlar mavjudki, ular o'zbekromannavislarning ilk, urush davri, turg'unlik, istiqloq arafasi va istiqloq davri

yaratilgan namunalarda badiiy asar hamda undagi qahramon, personajlarning milliy-ruhiy xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborni tortadi. Aynan shuning uchun ularning badiiy-etnografik, tarixiy-falsafiy, estetik mohiyati, ijtimoiy-psixologik asoslari, poetik vazifalarini chuqur ilmiy ochib berish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Xalqimiz tomonidan yaratilgan va asrlar mobaynida ko'z qorachig'iday asrab kelingan milliyqadriyatlarimiz, urf-odatumarosimlarimiz talqini hamda tasvirining yozuvchi-shoirlar badiiy asarlarida ko'pincha etnografik folklorizm sifatida berilayotganini ilmiy asoslash, uning spesifikasi, tasnifi, genezisi va poetikasi masalalarini tizimli hal etish milliy adabiyotimiz badiiy taraqqiyot xususiyatlarini belgilab ko'rsatish imkonini beradi.

Dunyo folklorshunosligi va adabiyotshunosligida folklorizmlar tipologiyasi, xalq og'zaki ijodining yozma adabiyot taraqqiyotiga ta'siri, yozma adabiyotda folklor an'alarini davom ettirish masalalari dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib, uni o'rganish o'ziga xos tarixga ega. O'zbek adabiyotshunosligida bu masalaga qiziqish bevosita rus adabiyotshunosligi va folklorshunosligida amalga oshirilgan M.K.Azadovskiy, P.S.Vixodsev, V.B.Agrba, L.I.Yemelyanov, G.A.Levinton, U.B.Dalgat, A.A.Gorelov, Ye.G.Pozdnyakova, L.P.Bessonova kabi tadqiqotchilarning izlanishlari ta'sirida paydo bo'ldi<sup>1</sup>. Bu jihatdan B.Sarimsoqov, I.Yormatov tadqiqotchilari alohida e'tiborni tortadi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. – М. - Л.: Гослитиздат, 1960. – 547 с. Выходцев П.С. Русская советская поэзия инародное творчество. – Л.: Наука, 1963. – 549 с.

<sup>2</sup> Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир / Ўзбек фольклоршunosлиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 90.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ayrim asarlarda marosimlar nomiga yoki o‘tkazilish tarziga ishora qiluvchi parchalar uchraydi. Masalan, O‘tkir Hoshimovning “Uni beshik to‘yisiam meni gardanimda!” parchasi orqali chaqaloq tug‘ilganda o‘tkaziladigan marosim nomiga ishora qilinmoqda<sup>3</sup>.

Inson dunyodan o‘tgandan so‘ng ham marosim o‘tkaziladiki, bu “aza marosimi” deyiladi. Yozuvchi asarda ushbu marosim tasviriga alohida o‘rin ajratgan: “Bir kuni ertalab uyimizga ancha odam yig‘ildi. Olacha to‘n kiygan kishilar, oppoq ko‘ylak kiyib, boshigaoq ro‘mol o‘ragan xotinlar... Dadam boshimni ko‘ksiga bosgancha ho‘rsinib-ho‘rsinib yiladi.”

Ushbu tasvir bola tilidan hikoya qilingan. Kitobxon ushbu parchani o‘qir ekan, ko‘z oldida aza marosimi gavdalanadi.

Asarda to‘y marosimi tasviri ham keltirilgan: “Qoronu tushar-tushmas tumonat odam to‘plandi. Bashang kiyingan erkaklar, yasan-tusan qilgan xotinlar. Ko‘tarmada shuncha ko‘p bola borligini bilmagan ekanman.

Pastak eshikdan hovliga chopib kirdik. Qarasam, hovli o‘rtasida lovillabgulxan yonyapti. Dadamni alanga atrofidan uch marta aylantirishdi”.

Bunda to‘y voqeligi yosh Muzaffar tilidan hikoya qilingan. Asarda to‘y marosimi uchun alohida bir bo‘lim ajratilgan. Unda kelinning kuyov xonadoniga olib kelinishi tasviri ham keltirilgan: “Qani, qudaposhshalar! – Abduvalining oyisi kurash tushadigan polvondek gerdayib o‘rtaga chiqdi. Kuyov tomon bilan bellashaman deganlar bormi? U kattakon chorsi qiyiqchani bir uchidan tutib silkitdi. Besholti xotin Abduvalining oyisidan keyin safga tuzildi. Xuddi poezdga o‘xshab, bir-birining belidan quchoqlab olishdi.

Kelin tomondan ko‘krak burma ko‘ylak kiygan gavdali xotin o‘rtaga chiqdi. Abduvalining oyisi gavdalining oyisitutib turgan qiyiqchani narigichetidan ushladi.

Shu tarzda xotinlar arqonni hamma o‘z tomoniga tortdi. Parcha xola hech kuyov tomoniga yor bermayotgan edi. Oxirida baribir bo‘ysunishga majbur bo‘ladi”.

Bu parcha orqali yozuvchi kelin kuyovnikiga tushirib kelingach, har ikkala tomon xotin-qizlarining o‘zaro bellashishi jarayonini tasvirlab ko‘rsatmoqda.

Romanda to‘y tasvirini jonli yaratish uchun yor-yor qo‘shiqalaridan analitik folklorizm sifatida foydalanilgan:

Tog‘da toychoq kishnaydi, ot bo‘ldim deb yor-yor

Uyda kelin yilaydi, yot bo‘ldim deb yor-yor

Yilama, qiz, yilama, yot bo‘ldim, deb yor- yor.

Ostonasi tillodan uy seniki yor-yor.

Osmonda yulduz ko‘rdim, Oltin Qoziq yor-yor

Tushayotgan kelinning ko‘ngli nozik yor- yor.

### NATIJALAR

Xar bir xalq yoki elat, avvalo tarixi, madaniy birligi bilan ajralib turadi. O‘zbek xalqi ham uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib, juda ko‘p ilmiy-madaniy xususiyatlarga ega bo‘ldi. O‘tmish ajdodlarimiz

<sup>3</sup> ҲОШИМОВ Ў. ”Икки эшик ораси”. Тошкент: Шарқ, 2016.-Б.121.

an’analari qadriyatlarini asrdan-asrga, avloddan-avlodga saqlanib, taraqqiy topib keldi. Xususan, milliy-madaniy xususiyatlarimizni saqlanib qolishida xalq ogzaki badiiy ijodining roli beqiyos bo’ldi. Jumladan, xalqimizni o’ziga xos urf-odat va marosimlari bola tarbiyasi, mehmonnavozlik tabiati, axloq-odob qoidalari, pazandachilik malakasi, mehnat va turmush tarzi tartiblari folklor asarlari orqali bizgacha yetib keldi. Uzoq o’tmishda guruh-guruh bo’lib xalq sayillarida, ommaviy bayramalarda turli tuman tomoshalar ko’rsatgan xalq qiziqchilari, qo’girchoqbozlar, dorbozlar, raqqos va xonandalarni ijodiy uyushmalarini folklor ansambilini o’ziga xos na’munalari deyish mumkin. Chunki folklor asarlarini ommaviy ravishda ijro etuvchilarning aksariyati professional bo’lmay, balki havaskor ijrochilar bo’lib ularni repertuari ham sof xalq og’zaki ijodidir. Xalq ijodiyotini asrash va rivojlantirishda folklor-etnografik ansambli rahbarlarining bu sohadagi ijodiy iqtidori muhim ahamiyatga ega. Ammo bu yo’lda tinmay izlanish lozim bo’ladi. Xalqning eng sara qo’shiqlarini ansamblga jalb qilingan ijrochilarning o’zidan yozib olish mumkin<sup>4</sup>.

Folklor an’analari xalqning turmush tarzi, hayoti, dunyoqarashi, ruhiy-estetik olami va ichki kechinmalarini yuksak badiiy ifoda ettirgan qadriyatdir. O’zbekistonda sobiq tuzum yillarida xalq ijodiyoti o’zining qadimiy ijrochilik anoanalarini va badiiy merosini muayyan darajada saqlab qolgan bo’lsada, o’sha davrning siyosiy qatag’onlari va mafkuraviy tazyiqlari bunday an’anaviy qadriyatlar tizimining ko’pgina poetik tabiatiga salbiy tasir ko’rsatgan edi. Oqibatda, o’zbek xalq og’zaki badiiy ijodiyotining ko’pgina qadimiy janrlari, etiqodiy qarashlari, tasavvurlari, marosim folklori namunalari, xalq an’analari, sayl va bayramlari bilan aloqador udum va qo’shiqlar, afsona, rivoyat, naqlar unutilayozdi. XX asrgacha yaratilgan o’zbek marosim folklori janrlari o’zining qadimiy an’analari xamda poetik tabiatini mukammal holda saqlab qolgan edi. So’z sehriga asoslangan badiha, kina, olqish kabi janrlari, yil fasllariga aloqador Navro’z, qizil gul sayli, boychechak, “gul sux”, birinchi qo’sh chiqarish bilan bogliq “shox moylar”, shuningdek, “yo ramazon”, “barot keldi”, yomgir chaqirish, shamol chaqirish va uni to’xtatish maqsadida ijro etilgan qadimiy aytim va qo’shiqlarning matnlari xalq og’zaki ijodi namunalari<sup>5</sup>.

O’zbek xalqi folklor qo’shiqchilik san’ati tarixi ko’hna bo’lib, uning shakllanish jarayoni esa xalqimiz tarixi bilan chambarchas bog’liq. O’zbek xalqimizning tarixi esa miloddan oldingi bir necha mingyillikka borib taqaladi. Agar yana chuqurroq mulohaza yuritilsa, olimlarning ilmiy tadqiqotlariga suyanilsa, u ibtidoiy jamoa davridan boshlanganligiga ishonch hosil qilamiz. Milliy-an’anaviy folklor qo’shiqchilik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hali dunyoning ayrim burchaklarida yarim kishilar istiqomat qilgan davrlarda bizning xududda folklor san’ati kurtaklari rivojlanganligining guvohi bo’lamiz.

#### **XULOSA VA MUNOZARA**

Asarda o’zbek oilaviy-maishiy-marosimlarining hech biri chetlab o’tilmagan. Yozuvchi ular orasidan “Kelinsalom”, “Challar”, “Sovchilik”, “Ma’lum oshi” kabilar bilan bog’liq birmuncha kengroq tasvirlarni bergan.

#### **Adabiyotlar Ro’yxati:References**

<sup>4</sup> I. A. Akbarov, Musiqa lug’ati. Toshkent G. G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti - 2017 y.

<sup>5</sup> Миршаев, У. М., & Миршаева, Д. А. (2020). Роль народных песен в нравственном воспитании учащихся. *Проблемы педагогики*, (3 (48)).

1. Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. – М. - Л.: Гослитиздат, 1960. – 547 с.
2. Выходцев П.С. Русская советская поэзия и народное творчество. – Л.: Наука, 1963. – 549 с.
3. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир / Ўзбекфольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2010. –Б. 90.
4. Ҳошимов Ў. ”Икки эшик ораси”. Тошкент: Шарқ, 2016.-Б.121.
5. I. A. Akbarov, Musiqa lug‘ati. Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti - 2017 y.
6. F. M. Karamatov, “O‘zbek xalq musiqa merosi”. Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot – 2018 y.
7. Yarashev, J. T. (2013). “Bukhorcha” and “Mavrigi” song classes—as a national and noetic spiritual values of the Uzbek nation. *ТРАДИЦИОННАЯ И СОВРЕМЕННАЯ КУЛЬТУРА: ИСТОРИЯ, АКТУАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ, ПЕРСПЕКТИВЫ*, 114.
8. Yarashev, J. T. (2019). Research on Bukhara music heritage through axiologicfeatures. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12)*.
9. Миршаев, У. М., & Миршаева, Д. А. (2020). Роль народных песен в нравственном воспитании учащихся. *Проблемы педагогики*, (3 (48)).